



NOSIRIDDIN TUSIY SHAXSIYATI VA O'SHA DAVR MA'NAVIY MUHITI

Qo'shshayeva Nafisa Mansurovna

Buxoro davlat universiteti, dotsent

Raxmatov Mironshoh Oybekovich.

Buxoro davlat universiteti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11525551>

Rezyume: Ushbu maqola Nosiriddin Tusiylar shaxsiyati hamda ijtimoiy-siyosiy muhiti yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ismoililar, Bog'dod fojiasi, Mo'g'illar, ma'naviy muhit.

Nosiriddin Tusiylar o'zining hayoti va faoliyati bilan falsafa tarixida o'z o'rniga ega buyuk donishmand va ensiklopedik olim sifatida islom falsafasi rivojida unutilmas va abadiy iz qoldirgan. Uning faoliyati nafaqat sharq va g'arb tamadduni rivojiga ta'sir qildi, balki oddiy xalqdan tortib o'z zamondoshlari va ziyolilarning hurmatiga ham sazovor bo'ldi. Shu-ningdek, uning faoliyati o'sha davrning g'oyaviy, falsafiy, siyosiy va madaniy darajasini belgilab berdi.

Nosiriddin Tusiylar shunday bir tarixiy davrda yashab ijod qildiki, ushbu tarixiy davr (XIII asr) butun Yaqin va O'rta Sharq dunyosi uchun ju-da bir tahlikali va ziddiyatli edi.

Tusiylar o'zi yashagan davrning har qancha maqtovga loyiq porloq vakili bo'lishiga qaramay, uning hayot yo'li ziddiyatli xususiyatlari bilan ajralib turgan. U XIII asrning asrning o'ttizinchi yillarida Ko'histonga keladi. Bu davrda u Ismoililar davlati saroyida xizmat qiladi va hukmdor Muhtashamning eng yaqin maslahatchisi va maslakdoshlaridan biriga aylanadi. Allomaning iste'dodi, davlatchilik sohasidagi dunyoqarashi hamda noyob, o'ziga xos voqea-hodisalarni avvaldan ko'rish qobiliyati saroyda yuksak qadrlandi. Shuni alohida qayd etish lozimki, markazi A'lamut qal'asi Ismoililar davlati 1090 yilda paydo bo'lgan edi. Saljuqiylar sulolasiga qarshi harakat sifatida vujudga kelgan Ismoililar davlati Suriyadagi bir qancha hududlarni o'z tarkibiga olgan va bu davlatning faoliyati asosan isyon va siyosiy terrorga asoslangan edi.

Davlatning asoschisi Hasan Sabbah (1090-1124) bo'lib, u Mo'g'ullarga qarshi kurashda Xorazmshoh Jaloliddin (1221-1231)ga har tomonlama yordam ko'rsatdi. Ismomiliylar faoliyatiga so'ngi nuqtani 1256 yilda Xulagu xon qo'ydi. Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayonlashadiki, Nosiriddin Tusiylar ilmiy faoliyatining avvali tahlikali sharoitda bo'lgan. Faoliyatidagi erkinlikka berilgan davrida ismoililar saroyida alloma saroy fitnalari qurboniga aylandi. Ko'histon hukmdori Nosiriddin Abulfath Abdurahim Abu Mansur unga Abu Ali



Miskaveyxning “At-tahoro” (Soflik, poklik) nomli kitobini fors tiliga tarjima qilishni taklif etadi, Tusiylar esa, buning o‘rniga maxsus asar yozishni va’da beradi.

XIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoda Chingizxon (1206 – 1227) tomonidan barpo etilgan mo‘g‘ul imperiyasi (1206 – 1368) katta hududga ega bo‘lib, asosiy boshqaruvni qo‘lga olgan edi. Mo‘g‘ullarning hukmronligi, ularning boshqaruv va tartibotlariga turk va musulmon sulolalari mutlaqo qarshi edi. Shunday kayfiyatga ega bo‘lgan Ali mo‘g‘ul hoqoni Munke 1255 yilda O‘rta Sharqda o‘z hokimiyatini mustahkamlash va bu yerdagi barcha hududlarni zabt etish maqsadida yaqin qarindoshi Xulagu xonni ushbu yerlarni ishg‘ol etish maqsadida yuboradi.

1256 yilda Chingizxon avlodidan bo‘lgan Xulaguxon (1256- 1265) Elxoniylar davlatiga asos soladi. Ushbu davlat Azarbayjon va Eron hududlarini o‘z ichiga qamrab olgan edi. Xulaguxon hukmronlik qilgan davrda ilm ahllariga va olimlarga o‘zgacha munosabatda bo‘lgan. U Nosiriddin Tusiylarning qimmatli maslahati va uzoqni ko‘ra oluvchi siyosiy dunyoqarashi vositasida Arab xalifaligida yarim ming yil hokimiyatni boshqargan Abbosiylar sulolasining (750-1258) hokimiyatiga chek qo‘yishga o‘zida kuch topa oldi. Aslida kelishmovchilikning asosiy sababi Xulaguxonning Bag‘dodga yuborilgan elchilari Abbosiy xalifasi tomonidan hurmat-izzat bilan kutib olinmaganligi bo‘lib, Elxoniy rahbarlarining g‘azablanishiga olib keldi. Shu tariqa 1258 yil 13 fevralda arablarning hokimiyatiga oxirgi nuqta qo‘yildi.

Ushbu tarixiy holat nafaqat tarixchi olimlar tomonidan, balki siyosatchi, faylasuf, olimlar tomonidan ham atroflicha tahlil qilingan va o‘ziga xos sharh, izohlar berilgan. Jumladan taniqli hind siyosiy arbobi Javoharlar Neru Bag‘dod fojiasini quyidagicha ifodalaydi: “G‘azab-langan Xulagu Bag‘dodga hujum qilar edi. Qirq kunlik qamaldan keyin u shaharni egallab oladi. Bu “Ming bir kecha” shahri, shuningdek, besh yuz yillik hukmronlikning oxiri edi. Xalifa, uning o‘g‘illari va yaqin qarindoshlari qatl qilindi. Qirg‘in bir necha hafta davom etdi. Qat-liomda yarim million odam halok bo‘ldi. Bag‘dod xarobaga aylandi...”

Mo‘g‘ul xoniga bo‘lgan cheksiz va katta hurmat tufayli Nosiriddin Tusiylar mo‘g‘ul bosqinchilarining vaxshiy harakatlariga befarq tura olmadi. Uning donoligi va ehtiyotkorligi, uzoqni ko‘ra oladigan o‘ziga xos dunyoqarash sohibi bo‘lgan vazir musulmon sharqi va islom dunyosi uchun ahamiyatli va xayrli ishlarni qilishga ham ulgurganligini quyidagi holatlar bilan ham ko‘rsatish mumkin:



1. Ilmiy va madaniy ishlarni amalga oshirishdan tashqari kitoblar yozish;

2. Al-movt qal'asida joylashgan katta kutubxonani mo'g'ullar tomonidan yoqib yuborilishini oldini olish;

3. Mo'g'ullarning g'azabiga duchor bo'lgan Ibn Abil Hadid kabi bir necha olimlarning hayotini saqlab qolish;

4. Bir qator olimlarning o'zaro hamkorligi natijasida Marog'a rasadxonasining yaratilishi;

5. Observatoriyaga tegishli katta kutubxonani tayyorlash.

Tahlil nuqtasiga olingan ushbu tarixiy davrda Jo'jining o'g'li Botuxon (1240 – 1255) yaratgan Qizil O'rda davlati bilan Xulagular o'rtasida o'zaro qarama-qarshilik, kelishmovchilik, ziddiyat, bir-biriga nisbatan dushmanona ruhiyat mavjud bo'lib, Xulagular davlati Qizil O'rda davlati hududlariga hujum qilar, ularning tinchligiga rahna solar va ularning egallab turgan mavqelariga xalal berish edi. Botuxonning o'limidan keyin (1255) Berkaxon (1257 – 1266) e'tiqodda islomni, ya'ni musulmonchilikni qabul qiladi. U siyosiy faoliyatida barcha musulmon ahlining o'ldirilmasligini bahonayu-sabab qilib, bu bosqinlarni yanada kuchaytiradi. Davlat aholisining aksariyati turk bo'lgan hududlar yerlari edi. Mo'g'ullar o'zining mentalitetida ko'chmanchilik va o'troq hayot tarzida yashagan yerli aholi bilan uyg'unlashgan, omuxtalashib ketgan edi. Mo'g'ullarning islomni qabul qilgan, musulmon bo'lgan Jo'ji ulusi bilan butparast Xulagu ulusining toju-taxt uchun va ushbu hududda hukmronlikni qo'lga kiritish uchun olib borgan ayovsiz va qonli kurashlari oqibatida ushbu hududdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va ma'naviy-madaniy muhit maqtovli darajada emas edi.

Ammo, shunga qaramay bu davr ilm ahllari, mutafakkirlari turli ilmlar sohasida katta ishlarni amalga oshirishga ulgurgan edilar. Tusiylar ma'naviy merosida maqsadiga erishish uchun jamiyatda vijdonli, or-nomusli, yaxshilikka xayrxoh insonlarni tarbiya etishga e'tibor beradi. Shu sababli bo'lsa kerak, alloma o'z davrida "asrning yagonasi", "so'ngi faylasuf" kabi yuksak nomga sazovor bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatulloh Turkistoniy. Ilm va imon. Toshkent: Movarounnahr, 1993.
2. MACIT FAHRI. Islâm felsefesi, kelâmi ve tasavvufuna kisa bir giriş. Çeviren Şahin FILİZ. İstanbul, insan yayınları, 2008.
3. Nəsirəddin Tusi. Adabül-mütəəllimin (Tələbəlik mədəniyyəti). Bakı, 2002.
4. N.M.Qo'shshayeva .Nosiriddin Tusiylar ma'naviy – axloqiy ta'limotini yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. Monografiya. N.M. Qo'shshayeva –T.: "Lesson Press" nashriyoti, 2023 y.



5. 5.Tusi Nəsirəddin. Əxlaqi Nasiri. Bakı: "Lider" nəşriyyatı, 2005.
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
7. Sobirovich, T. B. (2021). The Strategy of Cultural Development in Central Asia During Amir Temur and the Temurids Dynasty. Int. J. Sci. Res. in Multidisciplinary Studies, 2021.
8. Sobirovich, T. B., & Norman, Z. D. M. (2023). Harmony of National and Universal Values in Uzbekistan. Harmony, 7(1), 08-16.
9. Turdiyev, B. S. (2021). Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers. Academic research in educational sciences, 2(4), 443-451.
10. Sobirovich, T. B. (2022). A study of national and universal principles of democracy. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 417-421.
11. Turdiyev, B. (2024). O 'RTA ASR MUTAFAKKIRLARINING JAMIYAT IDEOSFERASI YANGILANISHI TO 'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR TAHLILI. Farg'ona davlat universiteti, (1), 39-39.
12. Sobirovich, T. B. (2023). National Revival and Development Idiosphere of Uzbekistan.
13. Sobirovich, T. B. (2018). Spiritual renewal: a new decision and a strategy for viable reforms. Bukhara State University Scientific Information. Bukhara, (2), 70.
14. Sobirovich, T. B. (2020). Uzbekistan: from national revival to national progress. Modern scientific challenges and trends, (27), 5.
15. Sobirovich, T. B., & Ikrom o'g'li, I. M. (2022, September). ISSUE OF THE DEVELOPMENT OF SOCIETY IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 111-114).